AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажхоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	
"O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	



SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1110
Qodirov Bekzod Xomidjonovich	
FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI	1115
O'taganova Umida Egamberdi qizi	
MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilduza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY MOHIYATI.....	1147
Pulatova Adolat Djaxangirshyevna	



ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOYILLARINING IQTISODIY MOHIYATI

Pulatova Adolat Djaxangirshyevna

International School of Finance Technology and Science Institute

“Biznes Boshqaruv” kafedrası o’qituvchisi

Email: adolat6331762@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada islomiy moliya institutlarida foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining iqtisodiy mohiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida islomiy moliyaning nazariy-metodologik asoslari, riboning taqiqlanishi, risk va daromadni adolatli taqsimlash mexanizmlari hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish instrumentlarining iqtisodiy samaradorligi yoritib beriladi. Shuningdek, mushoraka, mudaraba, murabaha va ijara kabi shartnomalarning iqtisodiy mazmuni ochib berilib, ularning moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdagi o’rni asoslab beriladi. Maqola natijalari islomiy moliya institutlarini rivojlantirish, foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda milliy moliya tizimiga joriy etishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: islomiy moliya, foizsiz moliyalashtirish, riba, risklarni taqsimlash, mushoraka, mudaraba, murabaha, real aktivlar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the economic essence of interest-free financing principles in Islamic financial institutions. The study examines the theoretical and methodological foundations of Islamic finance, the economic rationale for the prohibition of interest (riba), and the mechanisms of equitable risk and profit sharing among financial participants. Particular attention is paid to Islamic financial instruments such as musharakah, mudarabah, murabahah, and ijarah, highlighting their role in enhancing financial stability and strengthening the linkage between the financial sector and the real economy. The findings of the article offer valuable insights for the development of Islamic financial institutions and the implementation of interest-free financing mechanisms within national financial systems.

Key words: Islamic finance, interest-free financing, riba, risk-sharing, musharakah, mudarabah, murabahah, real assets, financial stability.

Аннотация. В данной научной статье проводится комплексный анализ экономической сущности принципов беспроцентного финансирования в исламских финансовых институтах. В ходе исследования раскрываются теоретико-методологические основы исламских финансов, экономическое значение запрета ростовщичества (риба), а также механизмы справедливого распределения рисков и доходов между участниками финансовых отношений. Особое внимание уделяется анализу исламских финансовых инструментов, таких как мушарака, мудараба, мурабаха и иджара, и их роли в обеспечении финансовой устойчивости и тесной связи финансового сектора с реальной экономикой. Результаты исследования могут быть использованы при разработке стратегий развития исламских финансов и внедрении механизмов беспроцентного финансирования в национальную финансовую систему.

Ключевые слова: исламские финансы, беспроцентное финансирование, риба, распределение рисков, мушарака, мудараба, мурабаха, реальные активы, финансовая устойчивость.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jahon moliya tizimi jadal rivojlanib borar ekan, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, risklarni samarali boshqarish va real iqtisodiyot bilan uzviy bog’langan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. So’nggi yillarda yuz bergan moliyaviy inqirozlar foizga asoslangan an’anaviy moliya tizimining ayrim tizimli kamchiliklarini namoyon etib, muqobil va barqaror moliyalashtirish modellari bo’yicha ilmiy-amaliy izlanishlarga ehtiyojni kuchaytirdi. Ana shunday sharoitda islomiy moliya institutlarida qo’llaniladigan foizsiz moliyalashtirish tamoyillari nafaqat diniy-me’yoriy talab sifatida, balki iqtisodiy jihatdan asoslangan samarali moliyaviy model sifatida e’tirof etilmoqda.



Islomiy moliya tizimi qoidalariga asoslangan holda ribo (foiz)ning taqiqlanishi, risk va daromadning adolatli taqsimlanishi, moliyaviy operatsiyalarning real aktivlar bilan ta'minlanganligi hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga tayanadi. Ushbu yondashuv moliyaviy resurslardan foydalanishda spekulyativ operatsiyalarni cheklash, iqtisodiy faoliyatni real sektor bilan uyg'unlashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkonini beradi.

Bugungi kunda islomiy moliya institutlari nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo davlatlarida ham keng rivojlanib, global moliya bozorining muhim segmentiga aylanmoqda. Islomiy banklar, takaful kompaniyalari va sukuk bozorining jadal o'sishi foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini yaqqol ko'rsatib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham moliya tizimini diversifikatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida islomiy moliya institutlarini joriy etishga qiziqish ortib bormoqda. Shu jihatdan, foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining iqtisodiy mohiyatini chuqur ilmiy tahlil qilish, ularning afzalliklari va amaliy imkoniyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi islomiy moliya institutlarida foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, ushbu mexanizmlarning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini va real iqtisodiyot bilan bog'liqligini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islomiy moliya va foizsiz moliyalashtirish tamoyillari so'nggi o'n yilliklarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlar asosan islomiy moliyaning nazariy asoslari, iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy barqarorlikka ta'siri hamda an'anaviy moliya tizimi bilan solishtirma tahliliga qaratilgan.

Islomiy moliyaning nazariy poydevori klassik fiqh olimlari asarlarida shakllangan bo'lib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda bu qarashlar iqtisodiy kategoriya sifatida qayta talqin qilinmoqda. Jumladan, Chapra (2000) o'z tadqiqotlarida riboning taqiqlanishini iqtisodiy adolat va resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida asoslaydi. Uning fikricha, foizga asoslangan moliyalashtirish kapitalning real iqtisodiyotdan uzilishiga olib kelib, moliyaviy inqirozlar xavfini oshiradi.

Iqbol va Mirakhor (2011) islomiy moliya institutlarining asosiy ustun jihatini risk va daromadni taqsimlash mexanizmlarida ko'rib chiqadilar. Mualliflar mushoraka va mudaraba kabi shartnomalar investitsiya jarayonida ishtirokchilar o'rtasida manfaatlar uyg'unligini ta'minlab, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari islomiy moliyaning nazariy konsepsiyalarini amaliy moliyaviy instrumentlar bilan bog'lab berishi bilan ahamiyatlidir.

Zamonaviy empirik tadqiqotlarda islomiy banklarning moliyaviy barqarorligi masalasi alohida o'rin egallaydi. Beck, Demirgüç-Kunt va Merrouche (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda islomiy banklar va an'anaviy banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari solishtirilib, islomiy banklar inqiroz davrida nisbatan barqarorroq faoliyat yuritishi aniqlangan. Bu holat foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarining risklarni cheklashdagi imkoniyatlarini tasdiqlaydi.

Shuningdek, murabaha, ijara va istisna kabi savdo va ijara asosidagi moliyalashtirish instrumentlari iqtisodiy jihatdan keng tahlil qilingan. Usmani (2002) ushbu shartnomalarning Islom moliyasiga muvofiqligini asoslab berish bilan birga, ularning real aktivlarga tayanganligi moliyaviy operatsiyalarda shaffoflikni ta'minlashini qayd etadi. Biroq ayrim olimlar murabaha operatsiyalarining amaliyotda haddan tashqari ko'p qo'llanilishi islomiy moliyaning riskni taqsimlash tamoyillarini cheklashi mumkinligini tanqidiy nuqtayi nazardan baholaydilar.

MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida islomiy moliyani joriy etishning institutsional va huquqiy jihatlarini ustuvor yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Xususan, ayrim mahalliy tadqiqotlarda islomiy moliya instrumentlarini milliy bank tizimiga integratsiya qilish, normativ-huquqiy bazani moslashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu ishlar O'zbekiston sharoitida islomiy moliyani rivojlantirishning amaliy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining iqtisodiy mohiyati ko'pincha umumiy nazariy darajada yoritilib, ularning real iqtisodiyot bilan o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash mexanizmlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda islomiy moliya institutlarida foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining iqtisodiy mohiyatini o'rganish maqsadida umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish usuli orqali islomiy moliyaning nazariy asoslari va foizsiz moliyalashtirish mexanizmlariga oid mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlar o'rganildi.



Tadqiqot jarayonida taqqoslash usuli yordamida islomiy va an'anaviy moliya tizimlarining asosiy xususiyatlari solishtirildi, mantiqiy tahlil va sintez usullari orqali foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining iqtisodiy mazmuni asoslab berildi. Shuningdek, umumlashtirish va induksiya usullari qo'llanilib, olingan ilmiy xulosalar tizimlashtirildi. Tadqiqot natijalari konseptual tahlilga asoslanib, ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan nazariy va konseptual tahlillar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya institutlarida qo'llaniladigan foizsiz moliyalashtirish tamoyillari iqtisodiy jihatdan an'anaviy foizga asoslangan moliya tizimidan tubdan farq qiladi. Mazkur farq, avvalo, moliyaviy munosabatlarning mazmuni va risklarni taqsimlash mexanizmlarida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, foizsiz moliyalashtirish modeli moliyaviy resurslar harakatining real iqtisodiyot bilan bevosita bog'lanishini ta'minlab, spekulativ operatsiyalar ulushini sezilarli darajada cheklaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mushoraka va mudaraba kabi riskni bo'lishishga asoslangan shartnomalar investitsiya jarayonida manfaatlar uyg'unligini ta'minlaydi. An'anaviy kreditlashda moliyaviy risklar asosan qarz oluvchi zimmasiga yuklatilsa, islomiy moliyada risk va daromad moliyalashtiruvchi va moliyalashtiriluvchi o'rtasida adolatli taqsimlanadi. Bu holat iqtisodiy subyektlarni loyihalarni puxta rejalashtirishga, resurslardan samarali foydalanishga va uzoq muddatli barqarorlikka yo'naltiradi.

Muhokama jarayonida murabaha va ijara asosidagi moliyalashtirish instrumentlarining iqtisodiy ahamiyati ham aniqlashtirildi. Ushbu instrumentlar real aktivlar bilan ta'minlangan bo'lib, kreditlashdan farqli ravishda moliyaviy operatsiyalarni real tovar va xizmatlar harakati bilan bog'laydi. Natijada inflyatsion bosim kamayadi, moliyaviy pufaklar yuzaga kelish ehtimoli pasayadi va iqtisodiyotning real sektori qo'llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari murabaha operatsiyalarining haddan tashqari ustunligi islomiy moliyaning asosiy g'oyasi bo'lgan riskni bo'lishish tamoyilini ma'lum darajada cheklashi mumkinligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, foizsiz moliyalashtirish tamoyillari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Risklarning taqsimlanishi va moliyaviy intizomning kuchayishi banklar faoliyatida muammoli aktivlar ulushining kamayishiga xizmat qiladi. Bu esa moliya tizimining inqirozlarga nisbatan bardoshlilikini oshiradi.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston moliya tizimi uchun foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish istiqbollari ham baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya instrumentlarining joriy etilishi investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda samarali vosita bo'lishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Islomiy moliya institutlarida foizsiz moliyalashtirish instrumentlarining iqtisodiy tavsifi

Moliyalashtirish instrumenti	Asosiy iqtisodiy mazmuni	Risklarni taqsimlash xususiyati	Real iqtisodiyot bilan bog'liqligi	Iqtisodiy samaradorlik jihatlari
Mushoraka	Tomonlar kapital qo'shgan holda sheriklik asosida faoliyat yuritadi	Foyda kelishuv asosida, zarar kapital ulushiga mutanosib taqsimlanadi	Yuqori – real loyiha va ishlab chiqarishga asoslanadi	Investitsiya faolligini oshiradi, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi
Mudaraba	Bir tomon kapital, ikkinchi tomon boshqaruv va mehnatni ta'minlaydi	Foyda kelishuv asosida, zarar kapital egasiga tegishli	Yuqori – real biznes faoliyatiga yo'naltirilgan	Innovatsion va tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishda samarali
Murabaha	Tovarni ustama narxda sotish asosida moliyalashtirish	Risk asosan aktivni sotib olish bosqichida bank zimmasida	O'rta – real tovar bilan bog'langan	Barqaror daromad manbai, lekin riskni bo'lishish cheklangan
Ijara	Aktivni ijaraga berish orqali daromad olish	Aktivga egalik riski moliyalashtiruvchi zimmasida	Yuqori – real aktivlar asosida	Uzoq muddatli aktivlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi
Istisna	Buyurtma asosida ishlab chiqarishni moliyalashtirish	Ishlab chiqarish risklari tomonlar o'rtasida taqsimlanadi	Yuqori – sanoat va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan	Yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkonini beradi



Jadval islomiy moliya institutlarida qo'llaniladigan foizsiz moliyalashtirish instrumentlarining iqtisodiy mazmuni bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili hamda muallifning nazariy umimlashtirishlari asosida tuzilgan (2-jadval).

2-jadval. Jahon islomiy moliya bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2024–2025)

Ko'rsatkich	Qiymat (2024)	O'sish / prognoz (2025–2028)	Izoh
Jahon islomiy moliya aktivlari (total)	US\$ 3.88 trln	Aktivlar US\$ 7.5 trln*gacha (2028)	2024 yilda jami aktivlar 14.9% o'sdi; 2028 ga prognoz yuqori o'sish bilan
Islomiy bank aktivlari ulushi	~71.6 %	70%+ saqlanadi	Islomiy banklar sektori aktivlarning asosiy qismini tashkil qiladi
Sukuk bozorining aylanma qiymati	US\$ 230.4 mlrd	Sukuk US\$ 1.5 trln (2028)	Kapital bozorida sahifa o'smoqda, sukuk ikkinchi eng yirik segment
Sukuk ulushi (total aktivlarda)	23.3 %	–	Sukuk islomiy moliya aktivlarining taxminan chorak qismini tashkil etadi
Islomiy sug'urta (takaful) aktivlari	1.4 %	–	Takaful sektori kichik bo'lsa-da, barqaror o'smoqda
Islomiy fondlar AUM (Assets under management)	US\$ 193.6 mlrd	–	Islomiy investitsiya fondlari kengaymoqda
Raqamli moliya va fintech qabul qilinishi	–	O'sish tendensiyasi	Fintech islomiy moliya bozorining raqamli transformatsiyasini tezlashtirmoqda

Ushbu jadval global islomiy moliya bozorining 2024–2025-yillar statistik ma'lumotlari va 2028-yilgacha bo'lgan prognozlarni aks ettiradi. Ma'lumotlar Jahon islomiy moliya institutlari bo'yicha hisobotlar, bozor tahlillari va moliya bozoriga oid amaliy statistik resurslar (xususan, IFSB va Standard Chartered tahlillari) asosida yig'ilgan.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining iqtisodiy mohiyati risklarni taqsimlash va real aktivlarga bog'liqlik nuqtayi nazaridan kompleks yondashuv asosida ochib berildi;
- islomiy moliya instrumentlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli konseptual tahlil asosida asoslab berildi;
- murabaha asosidagi moliyalashtirishning ustunligi va uning cheklavlari iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan tanqidiy baholandi;
- O'zbekiston moliya tizimi sharoitida foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishning iqtisodiy imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya institutlarida qo'llaniladigan foizsiz moliyalashtirish tamoyillari iqtisodiy jihatdan barqaror, adolatli va real sektor bilan uzviy bog'langan moliyaviy model hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida foizsiz moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning risk va daromadni adolatli taqsimlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berildi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, mushoraka va mudaraba kabi sheriklikka asoslangan moliyalashtirish instrumentlari investitsion faollikni oshirish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Murabaha va ijara asosidagi moliyalashtirish mexanizmlari esa real aktivlarga tayanganligi bilan moliyaviy intizomni kuchaytiradi va spekulativ operatsiyalarni cheklashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari foizsiz moliyalashtirish tamoyillarining moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Risklarning taqsimlanishi va moliyaviy munosabatlarning shaffofligi bank tizimida muammoli aktivlar ulushining kamayishiga hamda moliyaviy inqirozlarga nisbatan bardoshlilikning oshishiga olib keladi. Shuningdek, global islomiy moliya bozorining jadal rivojlanishi ushbu modelning iqtisodiy samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida islomiy moliya institutlarini rivojlantirish moliya tizimini diversifikatsiya qilish, investitsiya manbalarini kengaytirish va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshirish imkonini beradi. Shu munosabat bilan quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar asosida takomillashtirish;



- banklar faoliyatida foizsiz moliyalashtirish instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish va pilot loyihalarni kengaytirish;
- mushoraka va mudaraba asosidagi sheriklik moliyalashtirishini kichik biznes va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish;
- islomiy moliya sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini kengaytirish;
- sukuk va takaful bozorini rivojlantirish orqali moliya bozorining institutsional tuzilmasini mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, islomiy moliya institutlarida foizsiz moliyalashtirish tamoyillarini rivojlantirish va amaliyotga joriy etish nafaqat muqobil moliyalashtirish manbai, balki O'zbekiston moliya tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Chapra, M. U. (2000). Islam and the Economic Challenge. Islamic Foundation.
2. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. Wiley Finance.
3. Usmani, T. (2002). An Introduction to Islamic Finance. Idara-e-Ma'arif.
4. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Merrouche, O. (2013). Islamic vs. Conventional Banking: Business Model, Efficiency and Stability. Journal of Banking & Finance, 37(2), 433–447.
5. Standard Chartered Bank. (2024). Global Islamic Finance Assets to Surpass USD 7.5 Trillion by 2028. [Online] Available: <https://www.sc.com/en/press-release/standard-chartered-global-islamic-finance-assets-to-surpass-usd-7-5-trillion-by-2028/>
6. Fintech Galaxy. (2024). Global Islamic Finance Market Report 2024–2025. [Online] Available: <https://www.fintech-galaxy.com/media-center/news/global-islamic-finance-grows-149-reaches-us39-trillion-in-total-assets>
7. IFSB (Islamic Financial Services Board). (2023). Islamic Financial Services Industry Stability Report. Kuala Lumpur.
8. Market Growth Reports. (2024). Islamic Finance Market – Global Outlook. [Online] Available: <https://www.marketgrowthreports.com/market-reports/islamic-finance-market-118883>
9. Khan, F. (2010). How 'Islamic' is Islamic Banking?. Journal of Economic Behavior & Organization, 76(3), 805–820.
10. Ariff, M. (1988). Islamic Banking. Asian-Pacific Economic Literature, 2(2), 48–64.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
